

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**Qo‘lyozma huquqida
UDK: 378.091:005:001.895**

TO‘YCHIYEVA NODIRA G‘ULOM QIZI

**OLIIY TA‘LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI
BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.13 - “Menejment” ixtisosligi
bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan**

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

i.f.d., prof.Nazarova F.X.

Toshkent -2026

	MUNDARIJA	
	KIRISH	3
I.BOB.	OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	12
1.1.	Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyatni boshqarishning ilmiy yondoshuvlari	12
1.2.	Oliy ta'lim tizimida innovatsion, fundamental, amaliy loyihalarni ta'lim va tadqiqot integratsiyasida qo'llash jihatlari	21
1.3.	OTMlarda innovatsion faoliyatni boshqarishda rivojlangan mamlakatlar tajribalari va ijobiy tomonlarini qo'llash xususiyatlari	31
	1-bob bo'yicha xulosa	41
II.BOB.	OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	43
2.1.	OTMlarda raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashda raqamli texnologiyalarni qo'llash va dasturiy ta'minotlar bazasini takomillashtirish holati tahlili	43
2.2.	Oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilarning innovatsion faoliyatini samarali baholash va rag'batlantirish	58
2.3.	Oliy ta'lim muassasalarida fundamental, amaliy va innovatsion loyihalar natijalarini iqtisodiy samaradorligini baholash	73
	2- bob bo'yicha xulosa	92
III.BOB.	OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH STRATEGIYALARI	94
3.1.	Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion-transformator-tadbirkor modelini ishlab chiqish	94
3.2.	Oliy ta'lim muassasalarining innovatsion faoliyatini rivojlantirishning istiqbolli ko'rsatkichlari	108
3.3.	Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish strategiyasi	117
	3-bob bo'yicha xulosa	123
	XULOSA	126
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	131

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Jahon oliy ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyatni boshqarishni takomillashtirish zamonaviy iqtisodiyotining shakllanishida strategik ahamiyatga ega bo'lib, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni jadallashtirish, yangi texnologik yechimlarni tijoratlashtirish va milliy innovatsion tizimni mustahkamlashda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda. "Innovatsion faoliyat samaradorligini oshirishda universitetlar ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari emas, balki innovatsiya ekotizimlarining markaziy ishtirokchilari sifatida qaralib, ular ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish, startaplarni rivojlantirish va sanoat bilan hamkorlik orqali iqtisodiy o'sishga hissa qo'shmoqdalar"¹. Mazkur mexanizm universitetlarning iqtisodiyot tarmoqlari bilan hamkorligini mustahkamlab, tadqiqotchilarning ilmiy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqishiga imkoniyat yaratadi. Bunday yondashuv global raqobatbardoshlikni oshirish, intellektual mulkka asoslangan iqtisodiy o'sishni ta'minlash va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish orqali umumiy iqtisodiy barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Dunyo oliy ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyatni boshqarishni takomillashtirishda ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni qo'llash, ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini mustahkamlash, oliy ta'lim muassasalari innovatsion faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan keng ko'lamli tadqiqot ishlari olib borishni taqozo etmoqda. Bu ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalaridan kelib chiqib, oliy ta'lim muassasalarida innovatsion muhitni shakllantirishning samarali mexanizmini joriy etish, universitetlarni hozirgi kunda innovatsion xususiyatga ega bo'lgan "global bilim iqtisodiyoti", "yangi tipdagi iqtisodiyot" doirasida modernizatsiyalash zarurligiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyatni boshqarishni takomillashtirish bilimga asoslangan iqtisodiyotga o'tish va ilmiy-texnikaviy salohiyatni oshirish maqsadlariga mos ravishda amalga oshirilmoqda. 2022-2026

¹ World Bank. (2020). The Role of Universities in Innovation Ecosystems. Policy Research Working Paper. Retrieved from: <https://documents.worldbank.org>

yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida² innovatsiyalarni iqtisodiyotga joriy qilish, universitetlarda innovatsion markazlar, texnoparklar va startup-inkubatorlar tashkil etish, tadqiqotlarni tijoratlashtirish va ilmiy loyihalarni moliyalashtirish tizimini diversifikatsiya qilish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. "Universitet – biznes – davlat" hamkorlik platformalari faollashtirilib, oliy ta'lim muassasalariga akademik va moliyaviy avtonomiya berish orqali innovatsion tashabbuslar qo'llab-quvvatlanmoqda. Professor-o'qituvchilar va talabalarning startup faoliyati, xalqaro grantlar va investitsiya loyihalarida ishtiroki rag'batlantirilmoqda. Biroq, innovatsion tadbirkorlik mexanizmlarini yanada rivojlantirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son "2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida", 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, 2025-yil 24-yanvardagi PQ-26-son "Farg'ona viloyatidagi oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2023-yil 3-iyuldagi PQ-200-son "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 14-iyuldagi PQ-3855-son "Ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlar va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti fan va texnologiyalarni rivojlantirishning "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.